| Преамбула | Muqaddima |
|---|---|
| Внимательно ознакомьтесь с текстом публичной оферты, и если Вы не согласны с каким-либо пунктом оферты, Вы обязаны отказаться от приобретения электронных подарочных сертификатов, упоминаемых в настоящей публичной оферте и покинуть сайт http://touristgiftcertificates.uz | Ommaviy oferta matni bilan diqqat bilan tanishib chiqing va agar Siz ofertaning biron bir bandiga norozi bo'lsangiz, ushbu ommaviy ofertada ko'rsatilgan elektron sovg'a sertifikatlarini sotib olishdan bosh tortishingiz va http://touristgiftcertificates.uz saytini tark etishingiz shart |
| **Договор купли-продажи электронных подарочных сертификатов** | **Elektron sovg’a sertifikatlari oldi-sotdi Shartnomasi** |
| Республика Узбекистан, г. Ташкент | O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh. |
| 30 августа 2023 г | 30 avgust 2023 y. |
| Настоящий документ является официальным предложением (публичной офертой) "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ (Регистрационный номер 009424-04), далее по тексту именуемое «Продавец», любому дееспособному физическому лицу, далее по тексту именуемому «Потребитель», заключить договор (далее – Договор) в соответствии со статьей 367 и частью второй статьи 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан | Ushbu hujjat, keyinchalik matnda "Sotuvchi" deb nomlanuvchi "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ (Ro'yxatdan o'tish raqami 009424-04)ning, keyinchalik matnda "Iste'molchi" deb nomlanuvchi har qanday layoqatli jismoniy shaxsga, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, shartnoma (keyingi o'rinlarda - Shartnoma) tuzishi uchun rasmiy taklifi(ommaviy ofertasi)dir |
| Выполнение Потребителем любого из действий, упоминаемых в настоящей Оферте, означает безусловное согласие Потребителя с нижеприведенными условиями (акцепт Оферты). | Ushbu Ofertada yod etilgan har qanday harakatlarning Iste'molchi tomonidan bajarilishi, Iste'molchining quyidagi shartlar bilan shartsiz roziligi (Ofertani qabul qilishi)ni anglatadi. |
| С момента акцепта Оферты Договор считается заключенным. | Oferta qabul qilingan paytdan boshlab Shartnoma tuzilgan hisoblanadi. |
| Во всем, что прямо не предусмотрено настоящим Договором, стороны руководствуются действующим законодательством Республики Узбекистан и обычаями делового оборота. | Ushbu Shartnomada aniq nazarda tutilmagan barcha holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va ishbilarmonlik muomalasi odatlariga amal qiladilar. |
| Действующая версия документа размещена на Интернет-сайте Исполнителя http://touristgiftcertificates.uz/offer.pdf | Hujjatning amaldagi versiyasi Ijrochining http://touristgiftcertificates.uz/offer.pdf veb-saytida joylashtirilgan |
| **ПРОДАВЕЦ -** | **SOTUVCHI -** |
| "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ ИНН 303112657 Адрес: Республика Узбекистан, город Ташкент, ОКИБАТ МСГ, МУСТАКИЛЛИК ШОХ КУЧАСИ, 6-УЙ осуществляющий реализацию товаров или предоставление услуг любому обратившемуся физическому лицу (“Потребителю”) в соответствии с условиями настоящего Договора. | ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq murojaat qilgan har qanday jismoniy shaxsga ("Iste'molchiga") tovarlarni sotish yoki xizmatlar ko'rsatishni amalga oshiruvchi "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ STIR 303112657 Manzili: O’zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Oqibat MFY, MUSTAQILLIK SHOX KO’CHASI, 6-uy |
| **ЭЛЕКТРОННЫЙ ПОДАРОЧНЫЙ СЕРТИФИКАТ** (далее - ЭПС) - неперсонифицированный электронный документ в виде цифровой записи для учета обязательств различных предприятий розничной торговли и/или сферы услуг по передаче Потребителю товаров или предоставления услуг в пределах прав | **ELEKTRON SOVG'A SERTIFIKATI** (keyingi o'rinlarda - ESS) – turli chakana savdo va/yoki xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarining Iste'molchiga, ularning ommaviy ofertalariga muvofiq, talab huquqi (ESS nominali) doirasida tovarlar berish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatlarini hisobga olish uchun raqamli yozuv shaklidagi shaxsiylashtirilmagan elektron hujjatdir. |

| | |
|---|---|
| требования (номинала ЭПС) в соответствии с их публичной офертой. | |
| **УНИКАЛЬНЫЙ ИДЕНТИФИКАЦИОННЫЙ КОД ЭПС** (далее - PIN-код ЭПС) - цифровой аналог собственноручной подписи Потребителя, направленный на указанный Потребителем номер мобильного телефона в виде SMS-сообщения для совершения операций обмена ЭПС на товары или услуги Продавца в соответствии с настоящим Договором | **ESS NOYOB IDENTIFIKATSIYA KODI** (keyingi o'rinlarda - ESS PIN-kodi) – ushbu Shartnomaga muvofiq, Sotuvchining tovarlari yoki xizmatlariga ESS ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun, Iste'molchi tomonidan ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar shaklida yo'naltirilgan, Iste'molchining o'z qo'li bilan qo'ygan imzosining raqamli analogi |
| **ПОТРЕБИТЕЛЬ** - любое физическое лицо, оплатившее ЭПС самостоятельно или через уполномоченного представителя (агента, комиссионера, поверенного), и/или владеющее PIN-код ЭПС, и/или совершающее обмен ЭПС на товары или услуги Продавца посредством предъявления PIN-кода ЭПС в соответствии с настоящим Договором. | **ISTE'MOLCHI** – ESS uchun mustaqil ravishda yoki vakolatli vakil (agent, komissioner, ishonchli vakil) orqali pul to'lagan va/yoki ESS PIN-kodiga ega bo'lgan va/yoki ushbu Shartnomaga muvofiq ESS PIN-kodini taqdim etish orqali Sotuvchining tovarlari yoki xizmatlariga ESS ayirboshini amalga oshiradigan har qanday jismoniy shaxs. |
| **1 ПОРЯДОК ЗАКЛЮЧЕНИЯ ДОГОВОРА** | **1 SHARTNOMA TUZISH TARTIBI** |
| 1.1. Потребитель, намеренный приобрести один или несколько ЭПС, считается заключившим Договор с Продавцом и полностью и безоговорочно принявшим все условия данной оферты после совершения действий по ее акцепту, то есть после осуществления оплаты одного или нескольких ЭПС любым способом, позволяющим однозначно идентифицировать факт оплаты ЭПС. | 1.1. Bir yoki bir nechta ESS sotib olishni niyat qilgan, ushbu ofertani qabul qilish bo'yicha harakatlarni amalga oshirgani natijasida, ya'ni ESS to'lovi faktini aniq identifikatsiya qilishga imkon beradigan bir yoki bir nechta ESS uchun har qanday usulda to'lovni amalga oshirgan Iste'molchi, Sotuvchi bilan Shartnoma tuzgan va ushbu ofertaning barcha shartlarini to'liq va shartsiz qabul qilgan deb hisoblanadi. |
| 1.2. Для удобства Потребителей-иностранных граждан (нерезидентов Республики Узбекистан) планирующих туристическую поездку в Республику Узбекистан и совершающих расчеты посредством иностранных платежных систем допускается информирование потенциальных о расходах на приобретение ЭПС в иностранной валюте. | 1.2. Elektron tijorat platformalarida (elektron tijorat onlayn-do'konlarida) xorijiy to'lov tizimlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirayotgan Iste'molchilar-chet el fuqarolari(O'zbekiston Respublikasi norezidentlari)ga qulaylik yaratish maqsadida ularni ESSni chet el valyutasida sotib olish potensial xarajatlari to'g'risida xabardor qilishga yo'l qo'yiladi. |
| 1.3. Условие п.1.2 не означает автоматическое изменение стоимости стоимости ЭПС в узбекских сумах при изменении валютных курсов. Стоимость ЭПС в узбекских сумах не изменяется, но Потребителю - иностранному гражданину (нерезиденту Республики Узбекистан) оказывается информационный сервис для оценки своих потенциальных расходов в валюте. | 1.3. 1.2. - bandning sharti valyuta kurslari o'zgarganda O'zbekiston so'midagi ESS qiymatining avtomatik o'zgarishini anglatmaydi. O'zbekiston so'midagi ESS qiymati o'zgarmaydi, lekin Iste'molchiga - chet el fuqarosiga (O'zbekiston Respublikasining norezidentiga) valyutadagi potensial xarajatlarini baholashi uchun axborot xizmati ko'rsatiladi. |
| 1.4. Продавец не проверяет предоставляемую Потребителем информацию и не несет ответственности перед любыми третьими лицами за точность и достоверность такой информации, не расценивает предоставляемую Потребителем информацию в качестве персональных данных. При этом Потребитель согласен на обработку и передачу любым третьим лицам регистрационных данных в случае, если это необходимо для предоставления Потребителю ЭПС, а также для информирования его о товарах и услугах, предоставляемых Продавцом. | 1.4. Sotuvchi Iste'molchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirmaydi va bunday ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi uchun har qanday uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lmaydi, Iste'molchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni shaxsiy ma'lumotlar deb hisoblamaydi. Shu bilan birga, agar bu Iste'molchiga ESS taqdim etish, shuningdek Sotuvchi tomonidan taqdim etiladigan tovarlar va xizmatlar to'g'risida ma'lumot berish uchun zarur bo'lsa,Iste'molchi ro'yxatdan o'tish ma'lumotlarini qayta ishlash va uchinchi shaxslarga topshirishga rozidir. |

| | |
|---|---|
| **2. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА** | **2. SHARTNOMA MAVZUSI** |
| 2.1. Продавец предлагает Потребителям к приобретению ЭПС третьих лиц, поручивших организовать процесс реализации ЭПС различных номиналов. | 2.1.Sotuvchi, turli nominaldagi ESS sotuvi jarayonini tashkil etishni topshirgan uchinchi shaxslarning ESSini, iste'molchilarga sotib olishlari uchun taklif qiladi. |
| 2.2. Продавец реализует ЭПС в соответствии с действующими ценами, опубликованными на Интернет-сайте http://touristgiftcertificates.uz/ , а Потребитель производит оплату ЭПС и получает права владения ЭПС, в соответствии с условиями настоящего Договора | 2.2. Sotuvchi ESSni http://touristgiftcertificates.uz/ veb-saytida e'lon qilingan amaldagi narxlarga muvofiq sotadi, iste'molchi esa ESS to'lovini amalga oshiradi va ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq ESSga egalik huquqini oladi |
| 2.3. Стороны договорились, что реализация ЭПС, производится Потребителю: | 2.3. Tomonlar ESSni iste'molchiga sotish, quyidagi shartlarda amalga oshirilishiga kelishib oldilar: |
| - без перемещения (вывоза) за пределы территориальных границ Республики Узбекистан.<br>- без предоставления физического (материального) носителя;<br>- с местом хранения и учета перехода прав собственности в Республике Узбекистан | - O'zbekiston Respublikasining hududiy chegaralaridan tashqariga ko'chirmasdan (olib chiqilmasdan) .<br>- jismoniy (moddiy) tashuvchini taqdim qilmasdan;<br>- mulk huquqlarining o'tkazilishini saqlash va hisobga olish joyi - O'zbekiston Respublikasi bo’lishi bilan |
| **3. УСЛОВИЯ ДОГОВОРА** | **3. SHARTNOMA SHARTLARI** |
| 3.1. Право собственности на ЭПС, а также риск их случайной утраты ЭПС переходят к Потребителю в момент отправки SMS-сообщения с PIN-кодом ЭПС на указанный Потребителем номер мобильного телефона | 3.1. ESSga egalik huquqi, shuningdek, ularni tasodifan yo'qotib qo’yish xavfining javobgarligi, ESS PIN-kodi yozilgan SMS-xabar Iste'molchi ko'rsatgan mobil telefon raqamga yuborilishi paytida Iste'molchiga o'tadi |
| 3.2. С целью гарантированного информирования Потребителя о PIN-коде ЭПС, Продавец или уполномоченный представитель (агент, комиссионер, поверенный) Потребителя может использовать дополнительные каналы доставки PIN-кода ЭПС Потребителю. | 3.2. Iste'molchiga ESS PIN-kodi to'g'risida kafolatlangan ma'lumot berish maqsadida, Sotuvchi yoki Iste’molchining vakolatli vakili (agent, komissioner, ishonchli vakil) Iste'molchiga ESS PIN-kodini yetkazib berishning qo'shimcha kanallaridan foydalanishi mumkin. |
| 3.3. Потребитель принимает на себя безусловные обязательства хранения PIN-кода ЭПС в тайне от третьих лиц, исключение записи или дублирования PIN-кода ЭПС на каких-либо носителях, а также передачу PIN-кода ЭПС третьим лицам. | 3.3. Iste'molchi ESS PIN-kodini uchinchi shaxslardan maxfiy saqlash, har qanday tashuvchi vositalarida ESS PIN-kodini yozib olish yoki takrorlashni istisno qilish va ESS PIN-kodini uchinchi shaxslarga o'tkazish bo'yicha shartsiz majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. |
| 3.4. Потребитель принимает на себя безусловные обязательства оградить Продавца от претензий, исков и иных жалоб, возникших при повторном предъявлении этого же PIN-кода ЭПС другим лицом, а также принимает безусловную ответственность за расходы и ущерб Продавца, возникшие в результате таких претензий. | 3.4. Iste'molchi Sotuvchini xuddi shu ESS PIN-kodini boshqa shaxs tomonidan qayta taqdim etishda yuzaga kelgan da'volar, va boshqa shikoyatlardan himoya qilish bo'yicha shartsiz majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi, shuningdek, bunday da'volar natijasida kelib chiqqan Sotuvchining xarajatlari va zarari uchun shartsiz javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. |
| 3.5. ЭПС не является именным, и наличие PIN-кода ЭПС у Потребителя является | 3.5. ESS shaxsga biriktirilmagan va Iste'molchida ESS PIN-kodining mavjudligining o’zi Sotuvchi |

| | |
|---|---|
| достаточным свидетельством наличия у Потребителя полномочий по использованию ЭПС. | uchun Iste'molchida ESSdan foydalanish vakolati borligining yetarli dalilidir. |
| 3.6. Утрата Потребителем PIN-кода ЭПС равноценна утрате Потребителем прав на владение ЭПС. Предъявление других оснований для совершения операций обмена ЭПС на товары или услуги не предусмотрено. | 3.6. ESS PIN-kodini Iste’molchi tomonidan yo'qotilishi, Iste'molchining ESSga egalik qilish huquqini yo'qotishiga tengdir. ESSni tovarlar yoki xizmatlarga ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirish uchun boshqa asoslarni taqdim etish ko'zda tutilmagan. |
| **4. ОПЛАТА** | **4. TO’LOV** |
| 4.1. Оплата осуществляется Потребителем с использованием доступных на Интернет-сайте http://touristgiftcertificates.uz/ систем безналичных платежей, или банковским переводом на счет Продавца от уполномоченного представителя (агента, комиссионера, поверенного) Потребителя. Полная или частичная оплата наличными денежными средствами. | 4.1. To'lov Iste'molchi tomonidan http://touristgiftcertificates.uz veb-saytda mavjud bo'lgan naqd pulsiz to'lovlar tizimlaridan foydalangan holda yoki Sotuvchining hisob raqamiga iste'molchining vakolatli vakili (agent, komissioner, ishonchli vakil) tomonidan bank o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi**.** To'liq yoki qisman naqd pulda amalga oshirilishi mumkin. |
| 4.2. Продавец не несет ответственности за некорректную работу платежных систем, ошибки, сбои, отказ в авторизации платежа и любые другие обстоятельства не работоспособности или частичной работоспособности не позволяющих Потребителю произвести оплату. | 4.2. Sotuvchi to'lov tizimlarining noto'g'ri ishlashi, xatolar, nosozliklar, to'lov avtorizatsiyasining qabul qilinmasligi va iste'molchiga to'lovni amalga oshirish imkonini bermaydigan darajada ishlash qobiliyatining to’liq yoki qisman to’xtaganining boshqa holatlari uchun javobgar emas. |
| **5. ДОСТАВКА** | **5. YETKAZIB BERISH** |
| 5.1 Дата и время оплаты Заказа является датой и временем заключения Договора между Продавцом и Потребителем. | 5.1 Buyurtma uchun amalga oshirilgan to’lovning sanasi va vaqti bu Sotuvchi va Iste'molchi o'rtasida Shartnoma tuzilganining sanasi va vaqti deb hisoblanadi. |
| 5.2. Успешное завершение платежа по Заказу подтверждается Продавцом путем немедленной доставки PIN-кода ЭПС до Потребителя без взимания с дополнительных денежных средств. | 5.2.Buyurtma bo'yicha to'lov muvaffaqiyatli yakunlanganligi, ESS PIN-kodining iste'molchiga qo'shimcha pul undirmasdan darhol etkazib berilishi orqali Sotuvchi tomonidan tasdiqlanadi. |
| 5.3. Доставка производится путем отправки Потребителю SMS-сообщения с PIN-кодом ЭПС на номер мобильного телефона, указанный Потребителем в Заказе; | 5.3. Yetkazib berish, iste'molchiga ESS PIN-kodi yozilgan SMS-xabarni, iste'molchi Buyurtmada ko'rsatgan mobil telefon raqamiga yuborish orqali amalga oshiriladi; |
| 5.4. Стороны договорились использовать факт передачи PIN-кода ЭПС для удостоверения перехода прав собственности на ЭПС, и соблюдать следующий порядок заказа и оплаты ЭПС, представленные на сайте http://touristgiftcertificates.uz: | 5.4. Tomonlar ESSga egalik huquqining o'tishini tasdiqlash uchun ESS PIN-kodining topshirilishi faktidan foydalanishga va http://touristgiftcertificates.uz veb-saytida taqdim etilgan ESS buyurtmasi va to'lovining quyidagi tartibiga riona qilishga kelishdilar: |
| - Потребитель в электронном формате информирует Продавца приобрести ЭПС предприятия розничной торговли или сферы услуг на определенную сумму с целью последующего получения у них товаров или услуг; | - Iste'molchi elektron shaklda Sotuvchidan chakana savdo yoki xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonaning ESSini, keyinchalik undan tovarlar yoki xizmatlarni olish maqsadida, ma'lum miqdorda sotib olishi kerakligi to'g'risida xabar qiladi; |
| - Продавец в электронном формате информирует Потребителя о стоимости заказа; | - Sotuvchi Iste'molchiga buyurtma qiymati to'g'risida elektron formatda xabar beradi; |

| | |
|---|---|
| - Получив от Потребителя оплату заказанных ЭПС, Продавец передает права собственности на ЭПС путем предоставления Потребителю доступа к PIN-коду ЭПС; | - Iste'molchidan buyurtma qilingan ESS uchun to'lovni olganidan so'ng, Sotuvchi iste'molchiga ESS PIN-kodiga kirishni taqdim qilish orqali ESSga egalik huquqini topshiradi; |
| - Продавец передает Потребителю права собственности и риска случайной утраты ЭПС способом, позволяющим установить и при необходимости подтвердить факт передачи PIN-кода ЭПС; | - Xaridor iste'molchiga ESS egalik huquqini va tasodifan yo'qotish xavfini, ESS PIN-kodini topshirish faktini isbotlashga va zaruriyat tug'ilganida tasdiqlashga imkon beradigan tarzda topshiradi; |
| 5.5. В случае, если по любой причине Продавец не может передать Потребителю и/или Потребитель не может получить от Продавца PIN-код ЭПС, то Стороны договариваются о немедленном возврате денежных средств Потребителю | 5.5.Agar biron-bir sababga ko'ra Sotuvchi Iste'molchiga ESS PIN-kodini topshira olmasa va/yoki Iste'molchi Sotuvchidan uni qabul qila olmasa, Tomonlar darhol Iste'molchiga pul mablag'larini qaytarishga kelishadilar |
| **6. СРОКИ ИСПОЛНЕНИЯ** | **6. IJRO MUDDATLARI** |
| 6.1. Исполнение Договора производится Продавцом немедленно при получении информации о успешном завершении платежа Потребителем. | 6.1.Shartnoma ijrosi Iste'molchi to'lovni muvaffaqiyatli yakunlanganligi to'g'risida ma'lumot olinganidan so'ng Sotuvchi tomonidan darhol amalga oshiriladi. |
| 6.2. Договор считается исполненным в момент отправки Исполнителем PIN-кода ЭПС Потребителю. | 6.2. Ijrochi ESS PIN-kodini iste'molchiga yuborgan paytda Shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi. |
| 6.3. В случае предоставления Потребителем недостоверной информации, коммуникационных ошибках сетей передачи данных, ошибках, вызванных некорректной работой аппарата мобильной связи Потребителя, Продавец за ненадлежащее исполнение Заказа ответственности не несет. | 6.3. Iste'molchi tomonidan noto'g'ri ma'lumot berilgan holatida, ma'lumotlar uzatish tarmoqlaridagi aloqa xatolarida, iste'molchining uyali aloqa apparati noto'g'ri ishlashi natijasida yuzaga kelgan xatolarda Sotuvchi Buyurtmani tegishli ravishda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi. |
| **7. ПРАВА, ОБЯЗАННОСТИ И ОТВЕТСТВЕННОСТЬ** | **7. HUQUQLAR, MAJBURIYATLAR VA JAVOBGARLIK** |
| 7.1. Факт отправки PIN-кода ЭПС Стороны договора считают моментом перехода прав собственности на ЭПС и риска их случайной утраты к Потребителю. | 7.1. Shartnoma taraflari ESS PIN-kodini jo'natish faktini ESSga egalik huquqi va uni tasodifan yo'qotish xavfi iste'molchiga o'tdi deb hisoblashadi. |
| 7.2. Потребитель несет персональную ответственность за сохранность PIN-кода ЭПС. Восстановление или получение копии PIN-кода ЭПС невозможно. Утеря PIN-кода ЭПС равноценна утере прав Потребителя на ЭПС . | 7.2. Iste'molchi ESS PIN-kodining xavfsizligi uchun shaxsan javobgardir. ESS PIN-kodini tiklash yoki nusxasini olishning imkoniyati yo'q. ESS PIN-kodining yo'qolishi iste'molchining ESSga egalik huquqining yo'qolishiga tengdir. |
| 7.3. PIN-код ЭПС является строго секретным, и Потребитель принимает на себя безусловные обязательства хранения PIN-кода ЭПС в тайне от третьих лиц, исключение записи или дублирования PIN-кода ЭПС на каких-либо носителях, а также передачу PIN-кода ЭПС третьим лицам. | 7.3. ESS PIN-kodi qat'iy darajada maxfiy bo'lib, Iste'molchi ESS PIN-kodini uchinchi shaxslardan xufyona saqlash, har qanday tashuvchi vositalarida ESS PIN-kodini yozib olish yoki takrorlashni istisno qilish va ESS PIN-kodini uchinchi shaxslarga o'tkazish bo'yicha shartsiz majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi. |
| 7.4. Для обмена ЭПС на товары или услуги в соответствующих торговых или сервисных предприятиях Потребитель подтверждает легитимность этой операции путем предъявления PIN-кода ЭПС | 7.4. Tegishli savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalarida ESSni tovarlar yoki xizmatlarga ayirboshlash uchun iste'molchi ESS PIN-kodini taqdim etish orqali ushbu operatsiyaning qonuniyligini tasdiqlaydi |

| | |
|---|---|
| 7.5. При предъявлении Потребителем правильного PIN-кода ЭПС производится обмен ЭПС на товары или услуги соответствующих торговых или сервисных предприятий. Предъявление других оснований для идентификации Потребителя и обмена ЭПС на товары или услуги не предусмотрено. | 7.5. Iste'molchi ESSning to'g'ri PIN-kodini taqdim etganida, ESS tegishli savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalarining tovarlari yoki xizmatlariga almashtiriladi. Iste'molchini identifikatsiya qilish va ESSni tovarlar yoki xizmatlarga ayirboshlash uchun boshqa asoslarni taqdim etish ko’zda tutilmagan. |
| 7.6. Продавец не несет ответственности за ненадлежащее исполнение обязанностей третьих лиц, ЭПС которых представлены на Интернет-сайте Исполнителя. | 7.6. ESSlari Ijrochining veb-saytida taqdim etilgan uchinchi shaxslarning o’z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi uchun Sotuvchi javobgar emas. |
| 7.7. Настоящая оферта не является безотзывной. Продавец оставляет за собой право отказать в обслуживании без объяснения причин. | 7.7. Haqiqiy taklif qaytarib bo'lmaydigan hisoblanmaydi. Sotuvchi hech qanday tushuntirishsiz xizmat ko’rsatishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi. |
| 7.8. Потребитель обязуется не использовать ЭПС в предпринимательских целях. | 7.8. Iste'molchi ESSni tadbirkorlik maqsadlarida ishlatmaslik majburiyatini oladi. |
| 7.9. Все претензии по ненадлежащему исполнению Заказа Потребитель вправе направить на адрес электронной почты hello@touristgiftcertificates.uz | 7.9. Buyurtmani lozim darajada bajarmaslik bo'yicha barcha da'volarni Iste'molchi hello@touristgiftcertificates.uz elektron pochta manziliga yuborish huquqiga ega |
| "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ<br>Регистрационный номер 009424-04<br>ИНН 303112657<br>Адрес Узбекистан, Ташкент, ОКИБАТ МФЙ, МУСТАКИЛЛИК ШОХ КЎЧАСИ, 6-УЙ<br>e-mail ATA@touristgiftcertificates.uz<br>сайт https://touristgiftcertificates.uz/<br>Банк: ТОШКЕНТ Ш., ТИФ МИЛЛИЙ БАНКИ АЖ ЯШНОБОД БХМ<br><br>МФО 00450<br>Счет: 20208000700411303000<br>Код главной книги: 20208110 | "TOURIST GIFT CERTIFICATES" MCHJ<br>Ro'yxatdan o'tish raqami 009424-04<br>STIR 303112657<br>Manzil O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, OQIBAT MFY, MUSTAQILLIK SHOX KO’CHASHI, 6-UY<br>e-mail ATA@touristgiftcertificates.uz<br>veb-sayt https://touristgiftcertificates.uz/<br><br>Bank: TOSHKENT sh., TIF MILLIY BANKI AJ YASHNOBOD BXM<br><br>MFO 00450<br>Hisob raqam: 20208000700411303000<br>Bosh kitob kodi: 20208110 |